

UO'K: 627.8

**"XARXUR-DUOBA" IRRIGATSIYA TIZIMI BOSHQARMASI  
TASARRUFIDAGI "SHIMOLIY G'ARBIY TARMOQ"  
TUMANLARARO KANALINI TEXNIK HOLATINI YAXSHILASH  
BO'YICHA CHORA-TADBIRLAR ISHLAB CHIQISH.**

*Eshonov Bobir Botirovich – “Gidrotexnik inshootlar  
va nasos stansiyalari” kafedراسي assistenti.*

*Maxmudov Asilbek –Talaba.*

*Jo'rayev Oybek Otabek o'g'li – “Gidrotexnik  
inshootlar va nasos stansiyalari” kafedراسي magistranti.*

*“Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti”*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada gidrouzellar vazifasi va shu bilan bir qatorda suv xo'jaligida suv taqsimlash inshootlarining ahamiyati, gidropostlarning suv limitining taqsimlab berishda gidrouzellarning o'rni to'g'risida bir qancha malumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** gidrouzel, gidropost, suv taqsimlash, limit;

**DEVELOPMENT OF MEASURES FOR THE IMPROVEMENT OF  
THE "NORTHWESTERN NETWORK" INTER-DISTRICT CANAL  
UNDER THE "KHARHUR-DUOBA" IRRIGATION SYSTEM  
DEPARTMENT.**

*Eshanov Bobir- Head teacher of the department  
"Hydrotechnical constructions and pumping stations".*

*Makhmudov Asilbek - student*

*Jorayev Oybek - Graduate student of "Hydraulic  
facilities and pumping stations" department.*

*"Bukhara Institute of Natural Resources  
Management"*

**Annotation.** In this article, some information is given about the function of hydroelectric units and, at the same time, the importance of water distribution structures in water management, the role of hydroelectric units in distributing the water limit of hydrostations.

**Key words:** hydronozzle, hydropost, water distribution, limit;

Hozirgi kunda kelib respublikamizda suv resurslari hamda mavjud suv manbalaridan samarali foydalanaish bo'yicha bir qator qarorlar qabul qilinib ,bu qarorlarning asosiy mazmuni kamayib borayotgan suv resurlarini tejamkorlik bilan foydalanish g'oyalari ilgari surilmoqda.Jumladan suv resurslarini yetkazib berishda gidrotexnik inshootlarining ham o'rni katta .Chunki belgilangan suv sarflari gidrouzellardan taqsimlanib kanallar trassasi bo'ylab harakat qiladi. Suv limitlari iste'molchiga yetib borishi uchun gidroinshootlarning texnik holati muhimdir.

“Shimoliy G‘arbiy tarmoq” tumanlararo kanali 1965 yilda qurib foydalanishga topshirilgan. “Shimoliy G‘arbiy tarmoq” tumanlararo kanalining jami uzunligi 18.06 km tashkil etib, shundan to'liq 18,06 km qismi tuproq o'zanlidir.

“Shimoliy G‘arbiy tarmoq” tumanlararo kanalining gidravlik parametrlari quyidagicha.

1-jadval

$Q_{\max}$	i	n	m	b	h	v	R
70	0.00011	0.02	2.25	18.0	2.6	0.86	1.94

“Shimoliy G‘arbiy tarmoq” tumanlararo kanalining suv sarfi 70 m<sup>3</sup>/s bo‘lib, Vobkent tumanidagi "R.Husenov", “Bekniyozov”, “Karimbobo”, “X.Kamolov”, “Buzunduvon”, “Sadrobod”, “Todari” “Niogan” xo‘jaliklararo kanallari va “Panob”, “X.Kamolov”, “Buzunduvon” “I.Naimov”, “Roxkent” nasoslarini hamda Xayrabod tumanlararo kanaliga suv yetkazib beradi.

“Shimoliy G‘arbiy tarmoq” tumanlararo kanali “Amu-Buxoro” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tasarufidagi “Xachkab” gidrouzelidan suvni olib, Vobkent, Romitan va Jondor tumanlarini ekin maydonlarini suvg‘orishda suvni yetkazib beradi.



### **1-rasm Gidrouzel beton qoplamasini buzilish holatlari**

Kanalning suv olish nuqtasi loyixaviy  $51 \text{ m}^3/\text{s}$  bo‘lib, yillar davomida inshootdan va kanaldan to‘g‘ri foydalanilganligi hamda vaqtida ta‘mirlash tiklash ishlarini bajarilganligi sababli inshoot hozirgi kunda  $70 \text{ m}^3/\text{s}$  suvni o‘tkaza oladi. Xuddi shunday “Shimoliy G‘arbiy tarmoq” tumanlararo kanali yillar davomida mexanizmlar yordamida tozalanib, tozalangan tuprok va loykala kanal dambasiga tashlanib tiklanib kelinishi sababli kanal dambasi baland bo‘lgan va  $60 \text{ m}^3/\text{s}$  o‘rniga hozirda  $67 \text{ m}^3/\text{s}$  gacha suvni betalofat o‘tkazmoqda. Kanaldagi gidrotexnik inshootlarni o‘z vaqtida ta‘mirlash tiklash ishlari bajarilganligi sababli bu gidrotexnik inshootlar ham hozirda  $60 \text{ m}^3/\text{s}$  o‘rniga  $67 \text{ m}^3/\text{s}$  gacha suvni betalofat o‘tkazmoqda.

Gidrouzeldan foydalanish bo‘yicha texnik chora tadbirlar (1- jadval)

<b>T/R</b>	<b>Xavf-xatarni</b>	<b>Tavsiyalar</b>
------------	---------------------	-------------------

	<b>belgilovchi faktorlar</b>	
1.	Har bir inshootdagi zatvorlarning vintlarini moylanmagan tekshirib chiqish lozim.	Inshootni xavfsizligini ta'minlash maqsadida
2.	Ma'lum bir zatvorlar vintlarni kotarib tushirish mexanizmlari mavjud emas o'rnatilmagan.	PTB va PTE talablari asosida tartibga keltirish lozim
3.	Pastki bef gidropostgacha beton otkoslarni o't-o'lanlardan tozalanmagan.	PTB va PTE talablari asosida tartibga keltirish lozim
4.	Gidrouzel tarkibida yoritish tizimi mavjud emas	PTB va PTE talablari asosida tartibga keltirish lozim
5.	Kanalning piketlar kesimida loyqa bosish drajasini o'rganish lozim	Tezda tozalash ishlarini bajarish kerak
6.	Xatcha kanali gidropostgacha va reyka atroflarini o't va loyqa bosgan.	Tezda tozalash ishlarini bajarish kerak
7.	Kanalda o'zan usti oqiziqlari to'planishi mavjud.	Tezda tozalash ishlarini bajarish lozim
8.	Inshootni elektor ta'minot sistemasini mavsum oldidan qayta tekshiruvdan o'tkazish lozim.	Inshootni texnik holatini va xavfsizligini ta'minlash maqsadida
9.	Dispetcherlik binosini kapital ta'mirlash va binoga kuzatuv kameralarini o'rnatish kerak.	Inshoot ekspluatatsiyasini yaxshilash maqsadida
10.	Operativ texnik xujjatlarni PTB va PTE qoidalari asosida yuritilmayapti va nazorat qilinmagan.	Operativ texnik xujjatlarni PTB va PTE qoidalari asosida yuritish va nazorat qilish lozim

11.	Favqulodda vaziyatlar xavfi yuzaga kelganda va sodir bo‘lganda xabar berish va ogoxlantirish sxemasini tashkil etilmagan.	Favqulodda vaziyatlar xavfi yuzaga kelganda va sodir bo‘lganda xabar berish va ogoxlantirish sxemasini tashkil etish kerak
-----	---	--

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.R.Bakiev., N.Raxmatov., A.Ibraymov. Kanallardagi gidrotexnika inshootlari. – T.: 2018.
2. Mirzayev M.A, Ergashev X.E. SUV YO‘LLARINING HOZIRGI KUNDAGI AHVOLI VA QO‘LLANILISH SOHALARI. Экономика и социум 9(100)2022. <https://cyberleninka.ru/article/n/suv-yo-llarining-hozirgi-kundagi-ahvoli-va-qo-llanilish-sohalari>
3. M Mirzaev. “Present-day state of technical water supply system “Kuyimozor” at auxiliary pump station”. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, Volume 1138. doi:10.1088/1755-1315/1138/1/012009
4. M Mirzayev, B Eshonov, F Hikmatov. KANALLARDAGI ROSTLOVCHI INSHOOTLAR FLYUTBETI FILTRATSIYASIGA OID HISOBLAR. Экономика и социум
5. Mirzayev M., Eshonov B., Hikmatov F. KANALLARDAGI ROSTLOVCHI INSHOOTLAR FLYUTBETI FILTRATSIYASIGA OID HISOBLAR // Экономика и социум. 2022. №9 (100). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kanallardagi-rostlovchi-inshootlar-flyutbeti-filtratsiyasiga-oid-hisoblar>
6. Mirzayev M., Yavov A. NASOS AGREGATLARI TEXNIK SUV TA‘MINOTI TIZIMI TAHLILI I // Экономика и социум. 2022. №9 (100). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/nasos-agregatlari-texnik-suv-ta-minoti-tizimi-tahlili-i>

7. Yavov A., Mirzayev M. "TOSHRABOT" SUV TAQSIMLASH INSHOOTINING TEXNIK HOLATINI YAXSHILASH // Экономика и социум. 2022. №9 (100). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/toshrabot-suv-taqsimlash-inshootining-texnik-holatini-yaxshilash>